Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

3. Bocken, N. M., Short, S. W., & Evans, S. (2014). "A Literature and Practice Review to Develop Sustainable Business Model Archetypes." Journal of Cleaner Production.

4. Energiewende Research Group (2018). "Economic Impacts of Energy Transition in Germany." Renewable Energy Journal.

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Shodiyev Dilshodjon Abdulojon o‘g‘li
Farg‘ona politexnika instituti.
d.shodiyev@ferpi.uz

Annotatisya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini va samaradorligini oshirishda mahalliylashtirilgan amarant dorivor o‘simligini yetishitirish yetishtirish va issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etishni jadal rivojlantirish, sohaning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish hamda aholi bandligi va daromadlari darajasini oshirish, ayniqsa, qishloq joylarda yangi ish o‘rinlari yaratish mexanizmini ta’minlaydigan yagona tashkiliy tizimni barpo etish hamda innovatsion texnologiyalar asosida dorivor o‘simliklar yetishtirishni kompleks rivojlantirish maqsadida qabul qilgan qarorlar ham ushbu sohaning naqadar muhim ekanligini ifodalashi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jalig, amarant, Ulug‘nor navi, chorvachilik, silos.

Mamlakatimizda keyingi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash vazifalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, ulardan yarimtayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari olish, ikkilamchi ashyolaridan oziq-ovqat, farmatsevtika, tibbiyot sanoatlari uchun zarur preparatlar olish takomillashtirilgan texnologiyalari yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish” vazifalari belgilab berilgan. Bu borada jumladan, mahalliy sharoitlarda yetishtirilayotgan dorivor o‘simliklardan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunga kelib mahalliy sharoitlarda amarantning 19 ta navi introduksiya qilindi va tabiiy tanlash usuli bilan amarantning Xarkovskiy-1, Gelios, Ultra va Lera navlari asosida “O‘zbekiston-M”, “Andijon”, “Marhamat”, “Ulug‘nor” navlari yaratildi, seleksiya yutug‘i sifatida e’tirof etilib, mazkur nomlari bilan patentga buyurtma berildi va tegishli patentlar rasmiylashtirilgan [1-4]. Yuqori darajada sho‘rlangan degradatsion yerlarda amarant yetishtirish imkoniyatlari va pirovard natijada yerning sho‘rlashish darajasi kamayib borishi dinamikasi amalda sinalmoqda. Yerning sho‘rlashish darajasining kamayishi esa boshqa texnik o‘simliklar yetishtirish uchun yetarli darajada imkoniyat yaratishi ham bu o‘simlikning iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ulug‘nor tumanida yetishtirilgan amarantning Lera navi boshqa o‘simliklar o‘smaydigan sho‘rxok yerlarda o‘sib, hosil bermoqda va fermerlarga foyda olish

Published: 23.12.2024

Cite this article: Shodiyev Dilshodjon Abdulojon o‘g‘li (2024). Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini va samaradorligini oshirish. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/999

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

imkoniyatini bermoqda. Unumdor tuproqda gektaridan 7 tonnagacha don olinadigan amarant bu yerlarda gektaridan 2-3 tonna don hosili berdi, jahon bozorida 1 kg don narhi 1 AQSh dollarida narhlanishini hisobga olinsa iqtisodiy samara o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi. Undan tashqari har gektar yerdan olinadigan 200-250 tonna yashil massadan tayyorlangan silos chorva uchun yuqori vitaminli yem hisoblanadi. Don massasiga nisbatan 2-2,5 % ni tashkil qiladigan moyning 1 litri dorivor vosita sifatida Rossiyada 200 AQSh dollarida, AQSh da esa 700-800 AQSh dollarida (sovuq holda siqib olingan moy) narhlanadi. Bunday moy ajratib olingandan qolgan kunjara dorivor ozuqa mahsulotlari (xolva, pishiriqlar, non kabilar) ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo‘lib hisoblanadi [5].

Amarantni yetishtirishning iqtisodiy ahamiyatini hisoblash qiyin emas, darhaqiqat gektaridan olinadigan ulkan silos miqdoridan (200 t) tashqari, 60 sentnergacha olingan urug‘idan 6-8 % amarant moyi olinadi. Demak, gektaridan 1 tonnaga yaqin olinishi mumkin bo‘lgan bu moyning 1 litri 300 AQSh dollarida baholanishini hisobga olish yetarli.

Amarantni O‘zbekistonda o‘stirish, undan xalq ho‘jaligining turli sohalarida va tabobatda keng foydalanish istiqbolli yo‘nalish va shu kunning ehtiyojlaridan biridir. Bu o‘simlikning ekologik ahamiyatidan, aynan tobora sifatini yo‘qotayotgan tuprog‘imizni sog‘lomlashtirishda, hatto energetika muammosini yechishga ham jalb etilish istiqboli mavjud.

Xulosa

Amarantning bu kabi noyob xususiyatlari tufayli O‘zbekiston dehqonchilik sohasiga yangi istiqbolli madaniy va iqtisodiy samarador o‘simlik sifatida dadil kirib bormoqda. Amarantning qishloq va halq ho‘jaligidagi iqtisodiy ahamiyati beqiyos. Hozirgi vaqtda amarantning moyi bilan birgalikda amarant uni, barglari, ildizi, kunjarasini qimmatbaho vitaminli dorivor vositalar sifatida eksport qilish istiqbollari o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muminov M, To‘xtaxunov Q. Yaratilgan navni davlat reestriga kiritish guvohnomasi № 598 Amarant navi - O‘zbekiston-M. 10.10.2018
2. Muminov M, To‘xtaxunov Q, Yaratilgan navni davlat reestriga kiritish guvohnomasi № 599 Amarant navi - Andijon-M. 10.10.2018
3. Muminov M, To‘xtaxunov Q. Yaratilgan navni davlat reestriga kiritish guvohnomasi № 600 Amarant navi - Marxamat 10.10.2018
4. M.Muminov M, To‘xtaxunov Q. Yaratilgan navni davlat reestriga kiritish guvohnomasi № 601 Amarant navi- Ulug‘nor. 10.10.2018
5. To‘xtaboyev N.X. Amarant (Amaranthus hybridus L.) o‘simligini oziq-ovqat manbai sifatida kompleks qayta ishlash istiqbollari. Farg‘ona vodiysi o‘simlik, hayvonot dunyosi va ulardan oqilona foydalanish muammolari. Regional anjuman materiallari. Andijon, 26-yanvar 1999. 132-bet

SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Xalilova Maftuna Raxmon qizi
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institute

Annotatsiya: Ushbu maqola sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan resurslarni optimallashtirish